



**BUDJET INTIZOMI VA MOLIYAVIY JAVOBGARLIK
MASALALARI**

Andijon qishloq xo'jaligi va

Agrotexnologiyalari instituti

“Gumanitar fanlar” kafedrası

o'qituvchisi

Yunusjonov Nodirbek Yunusjonovich

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada moliya huquqining muhim instituti hisoblangan budjet intizomining huquqiy mohiyati, budjet mablag'laridan qonuniy, maqsadli va samarali foydalanish tamoyillari, shuningdek, budjet qonunchiligini buzganlik uchun moliyaviy, ma'muriy va jinoiy javobgarlik masalalari ilmiy-publitsistik uslubda batafsil tahlil etiladi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi normalari, davlat moliyaviy nazorati mexanizmlari va amaliyotdagi muammolarga asoslanadi hamda budjet intizomini mustahkamlashga doir takliflar bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: budjet intizomi, moliyaviy nazorat, budjet mablag'lari, moliyaviy javobgarlik, budjet huquqbuzarligi.

ANNOTATION

This article provides an in-depth scientific and publicistic analysis of budget discipline as one of the key institutions of financial law. The study examines the legal nature of budget discipline, the principles of lawful and efficient use of budget funds, as well as financial, administrative and criminal liability for violations of budget legislation. Special attention is paid to the



norms of the Budget Code of the Republic of Uzbekistan, mechanisms of state financial control, and existing problems in practice. The article also proposes ways to strengthen budget discipline and improve legal responsibility in the context of ongoing financial reforms.

Key words: budget discipline, financial control, budget funds, financial liability, budget offense.

INTRODUCTION

In modern economic conditions, ensuring effective management of public finances is one of the priority tasks of the state. Budget discipline plays a decisive role in maintaining financial stability, ensuring transparency of public expenditures and protecting public interests. Violations of budget legislation not only undermine economic development but also negatively affect public trust in state institutions. Therefore, strengthening budget discipline and improving legal liability mechanisms is of particular relevance in the context of financial and legal reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan [1].

KIRISH

Hozirgi globallashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyasini samarali boshqarish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat budjeti ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy moliyaviy poydevori bo'lib, uning ijrosi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilishi va budjet intizomiga rioya etilishi davlat manfaatlarini ta'minlashning muhim shartidir. Budjet mablag'laridan maqsadsiz yoki noqonuniy foydalanish moliyaviy barqarorlikka jiddiy xavf tug'diradi. Shu sababli budjet intizomini ta'minlash va uni buzganlik uchun javobgarlik choralari kuchaytirish moliya huquqining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi [2].



Budjet intizomi tushunchasi va huquqiy mohiyati

Budjet intizomi — bu budjet jarayoni ishtirokchilarining byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlariga qat'iy rioya etishi, budjet mablag'laridan belgilangan maqsadlar asosida foydalanish majburiyatidir. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksida budjet intizomi davlat moliyasini boshqarishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilgan [3].

Budjet mablag'laridan foydalanishning asosiy tamoyillari

Budjet mablag'laridan foydalanishda, shaffoflik qonuniylik, maqsadlilik, samaradorlik natijaviylik va iqtisodlilik tamoyillari ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu tamoyillarga rioya etish moliyaviy intizomni ta'minlashga xizmat qiladi [4].

Shaffoflik: Byudjet mablag'laridan qanday foydalanilayotgani ochiq bo'lishi, keng jamoatchilikka ma'lum bo'lishi kerak.

Samaradorlik: Mablag'larni eng yaxshi natijaga erishish uchun, kam xarajat bilan ko'proq foyda olish maqsadida sarflash.

Maqsadlilik: Byudjet mablag'larining faqat qonun bilan belgilangan maqsadlar uchun ishlatilishi.

Qonuniylik: Barcha xarajatlar qonunlarga va byudjet qonuniga muvofiq bo'lishi.

Iqtisodlilik: Mablag'larni tejab-tergab, ortiqcha xarajatlardan qochish.

Natijaviylik: Har bir sarflangan mablag'dan kutilgan natijaga erishilganligini ta'minlash.

Davlat moliyaviy nazorati va uning ahamiyati



Davlat moliyaviy nazorati Hisob palatasi, Moliya vazirligi hamda boshqa vakolatli organlar orqali amalga oshiriladi. Nazorat mexanizmlarining samarali ishlashi budjet intizomini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi [5].

Budjet huquqbuzarliklari va ularning turlari

Budjet huquqbuzarliklari budjet mablag'laridan noqonuniy foydalanish, hisobotlarni buzish va moliyaviy majburiyatlarni bajarmaslik shaklida namoyon bo'ladi. Bunday holatlar davlat manfaatlariga zarar yetkazadi [6].

Budjet intizomini buzganlik uchun moliyaviy javobgarlik

Moliyaviy javobgarlik — bu shaxs yoki tashkilotning qonun, shartnoma yoki majburiyatlarni buzishi natijasida yetkazilgan moddiy zarar uchun pul shaklida javob berish majburiyatidir.

Uning asosiy mazmuni shundan iboratki, aybli shaxs zarar ko'rgan tomonga yetkazilgan zararni qoplab berishi, jarima, penya yoki kompensatsiya to'lashi kerak bo'ladi.

Moliyaviy javobgarlik ko'pincha quyidagicha bo'ladi:

shartnoma shartlari buzilganda, mol-mulkka zarar yetkazilganda, soliqlarni o'z vaqtida to'lamaganda, xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmaganda yuzaga keladi

Byudjet kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksiga muvofiq, budjet intizomini buzgan shaxslarga nisbatan moliyaviy sanksiyalar, jarimalar va jinoiy jazolar qo'llaniladi [7].

Byudjedagi amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari



Byudjet tizimida uchraydigan amaliy muammolar mamlakat moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eng asosiy muammolardan biri — byudjet mablag'larining noto'g'ri rejalashtirilishi va maqsadsiz sarflanishidir. Bu holat davlat dasturlarining to'liq amalga oshmasligiga olib keladi. Shuningdek, daromadlar bazasining yetarli darajada shakllanmasligi, soliqlarni yig'ishda muammolar va yashirin iqtisodiyotning mavjudligi byudjet taqchilligini kuchaytiradi. Nazorat mexanizmlarining sustligi ham korrupsiya va moliyaviy intizomsizlikka sabab bo'ladi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun byudjetni rejalashtirishda aniq prognozlar va zamonaviy moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish zarur. Soliq tizimini soddalashtirish, raqamlashtirish orqali tushumlarni oshirish muhim ahamiyatga ega. Byudjet mablag'lari ustidan jamoatchilik va parlament nazoratini kuchaytirish, shaffoflikni ta'minlash orqali mablag'lardan samarali foydalanishga erishish mumkin. Bundan tashqari amaliyotda korrupsiya xavfi, nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi va huquqiy madaniyatning pastligi budjet intizomiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur [8].

Xulosa

Keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, byudjet tizimidagi amaliy muammolar davlat moliyaviy barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Byudjet mablag'larining noto'g'ri rejalashtirilishi, daromadlar bazasining yetarli shakllanmasligi hamda nazorat mexanizmlarining sustligi moliyaviy intizom buzilishiga olib keladi. Natijada davlat dasturlari to'liq va samarali amalga oshmaydi, aholi ehtiyojlari yetarli darajada qondirilmaydi. Shu bilan birga, soliq tushumlaridagi muammolar va yashirin iqtisodiyot mavjudligi byudjet taqchilligini yanada kuchaytiradi.



Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun byudjetni boshqarishda shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlik tamoyillarini kuchaytirish zarur. Zamonaviy moliyaviy rejalashtirish, raqamlashtirilgan nazorat tizimlari hamda jamoatchilik ishtiroki byudjet mablag'laridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Natijada davlat moliyasi mustahkamlanib, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
5. Karimov I.A. Davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: O'zbekiston, 2015.
6. Moliya huquqi. Darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2022.
7. Hisob palatasi faoliyatiga oid normativ hujjatlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy ma'ruzalari.